



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O'ZBEK TILI VA YOZUVINING IJTIMOIY FALSAFASI

Mirzaxmedov Abdurashid Mamasidikovich

Namangan davlat texnika universiteti, professor (DSc)

Mirzaxmedov Xurshid Abdurashidovich

Namangan davlat universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Maqolada milliy til va yozuv ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida axolining ma'naviy-axloqiy, siyosiy tafakkurini shakllantirishi bilan birga shaxs identifikatsiyasini ta'minlashi asoslangan. Davlatning dunyoviy ijtimoiylashuvida o'zbek yozuvi axolining milliy-diniy madaniyati, ma'rifati barqarorligiga ta'siri, zamonaviy ko'pmillatli jamiyatda alifboni lotinga o'zgartirilishining ijtimoiy-falsafiy jihatlari ijtimoiy savodxonlik saviyasi nuqtai nazaridan yoritilgan. Hozirgi globallashuv sharoitida kirill alifbosining ijtimoiy taraqqiyotga, yoshlarning intellektual salohiyatiga ta'siri falsafiy jihatdan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy yozuv, ko'p tillilik, yozuv siyosati, alifboning o'zgarishi, savodxonlik, ijtimoiy modernizatsiya.

СОЦИАЛЬНАЯ ФИЛОСОФИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ПИСЬМЕННОСТИ

Мирзахмедов Абдурашид Мамасидикович

Наманганский государственный технический университет, профессор (DSc)

Мирзахмедов Хуршид Абдурашидович

Наманганский государственный университет, доцент (PhD)

Аннотация

В статье национальный язык и письменность рассматриваются как важнейший фактор формирования духовно-нравственного, политического мышления населения для обеспечения идентификации личности. В статье роль узбекской письменности изучается на основе светской социализации государства, устойчивости национально-религиозной культуры и образования населения, а также социально-философские аспекты перехода на латиницу в современном многонациональном и религиозном обществе в контексте общественной грамотности. В условиях современной глобализации освещена социальная философия, влияние кириллицы на общественное развитие, интеллектуальный потенциал молодежи.

Ключевые слова: национальная письменность, многоязычие, политика в отношении письменности, смена алфавита, грамотность, социальная модернизация.

THE SOCIAL PHILOSOPHY OF THE UZBEK LANGUAGE AND WRITING

Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidikovich

Namangan State Technical University, Professor (DSc)

Mirzakhmedov Khurshid Abdurashidovich

Namangan State University, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article examines the national language and writing as a crucial factor in shaping the spiritual, moral, and political thinking of the population, ensuring personal identification. The article examines the role of the Uzbek writing system based on the secular socialization of the

state, the stability of national-religious culture, and the education of the population, as well as the socio-philosophical aspects of the transition to the Latin alphabet in a modern multiethnic and religious society in the context of public literacy. In the context of modern globalization, social philosophy, the influence of the Cyrillic alphabet on social development, and the intellectual potential of youth are explored.

Keywords: national writing, multilingualism, writing policy, alphabet transition, literacy, social modernization.

Til va yozuv tarixi qadimiy bo'lib, kishilik jamiyatining axborotlashuv orqali ijtimoiy taraqqiyotini belgilab bergan. Bil'aks, ibtidoiy odamlar birgalikda oziq-ovqat topish, kelib chiqqan muammolarni ijobiy hal etish uchun o'zaro axborot almashuv signallarini ishlab chiqishi, odamiylikka ma'naviy-axloqiy qadami bilan o'zlarini ilk bora kashf etganlar. Chunki, ibtidoiy jamoaviy turmushning asosida til signallari imo-ishoradan ovozli muayyan predmet va harakatlarni o'zida ifodalagan aloqa vositasi jamoaviy muhitning ijtimoiy hamkorligini ta'minlagan. Kishilik jamiyati yozuvga bo'lgan vaqtda turli-tuman usullarda axborotni saqlash, boshqalarga etkazish uchun ovoz signallarini qo'llagan. Antik Mesopotamiya, Xitoy va Xindistonning ibtidoiy odamlar jamoasi yashagan manzilgohlarida ularning qoyatosh tasvirlari ho'jalik hayoti haqida ma'lumotlar beradi.

Masalaning dolzarbligi rus tilshunoslari ma'lumotiga ko'ra fanda insonning nutqiy faoliyatida muhim gen "FOXP2" aniqlanib, tabiatdagi barcha jonzorlarning tirikligida genning 7 xromosomasi bo'lib, nutqda hal qiluvchi omil sifatida tasdiqlandi. Tabiiy til o'zida millat zotining evolyutsion rivojida adabiy til bilan birga yozuvning ijtimoiy tafakkur taraqqiyoti yutuqlarini mujassam etadi [4;252–261]. Yozuvning mazmun-mohiyati milliy genetik jihatga ega bo'lib, alifbo nafaqat boshlang'ich sinf, balki ajdodlardan-avlodlarga "qazisan, qartasan" tamoyilida o'tadi. Evropa xalqlari ingliz tiliga moyil bo'lsa, Sharq xalqlari turkiy tillarga tez ko'nikadi.

Til va yozuvning o'zaro dialektik aloqadorligi tufayli yozuv fikrning mahsuli bo'lsada, lekin yozuvni qayta taxlilida matnni takomillashtirishda fikr rivoji yuz beradi. Alifbo insonning bosh miya neyronlarida omuxtalashib ketishi tufayli odam matnga qarab tafakkurda yangi bilimni ijod eta oladi. Shoir o'zi yozgan she'rni badiiy ijod bo'lsada matnda fikriy qofiyalaydi, unga alifboning krillcha mukammalligi va miyada o'rnatilganligi uchun krillcha matnni miyada ham tahrirlay oladi. Shu ma'noda tanikli pedagog Farid Zakriyaning falsafada fikr yoki tilning qaysi biri birinchi kelishi haqidagi bahsga kirishib, "Yozishni boshlaganimda, "fikrlarim" odatda chala shakllangan g'oyalar va turli chalkashlikdan iborat ekanligini sezganman. Yozish meni ularni tartiblashga majburlagan edi. ...mantiqiy ketma ketlik borligi yoki xulosa haqiqiy faktlardan kelib chiqishini o'rganishning ifodasidir" deganda falsafiy haqiqatni tan olgan [13;73].

Muhokama va natijalar. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida" qonuni mamlakatimizning "hurlik" shiori – davlat suvereniteti doirasida yurtimiz ziyolilari "Kirill alifbosidan lotin alifbosiga o'tish" taklifi bilan chiqdilar. Ular dastlab buni "mustaqillik" g'oyasi bilan asoslab, jamiyatning ta'lim va tarbiyasi, milliy-ma'naviy axloqiy munosabatlarini boshi berk ko'cha olib kirishini tasavvur ham etolmaganlar. Chunki, davlat miqyosida axolining ommaviy ravishda yozma nutqida jiddiy inqiroz, ayniqsa yoshlarning ta'lim tizimi xusnihat, o'zaro yozma axborot almashuvi jiddiy izdan chiqishi, xatto yangi "o'rta alifbosi", "Q", "G" muammosidan tashqari, oddiy "Sh", "Ch" kabi bir qator harflarni yozuvda foydalanish holati fojiali ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois O'zbekiston Prezidenti ma'muriyati raxbari birgina "O'zbekiston" nomining yozuvidagi muammolar tufayli fundamental tadqiqotlar bilan bog'liq vazifalarni ilmiy jamoatchilik oldiga qo'yimoqda.

Yozuv millatning madaniyati bo'lib, OAVda o'zbek jonli nutqida adabiy tildan farqlanishi, tilga bo'lgan talablar jonli o'zbek tili va yozuvida davlat me'yoriy hujjatlarida ham aniq ifodalanishi shart. Tadqiqotchi Umida Xudaybergenova milliy yozuv fuqarolarning milliy o'zligini anglashda muhim unsur ekanligi, kirill alifbosiga o'tish milliy jihatdan sobiq ijtimoiy

tuzumga integratsiya, jahon hamjamiyati bilan birga bilvosita taraqqiyotni taqozo etganligini taxlil etgan. Yozuvning kashfiyoti millatning milliy tafakkurini ifodalab, oʻzga madaniyatlar bilan kommunikatsiyasi, ajdodlarning boy madaniy merosi, ijtimoiy tajribasini ogʻzaki va yozma usuli taʼlim va tarbiyaning vorisiyligi hisoblanadi. Olima Oʻzbekistonda arab yozuvi (1917 y.), lotin (1926–1940 yy.), kirill (1940–1991 yy.) va 1993 yilda lotin alifbosiga oʻtilishining gʻoyaviy omillarini taxlil qilgan [8;40–47]. Shu bilan birga olim lotin yozuviga yana qaytish milliy intellektual oʻsishga salbiy taʼsir etishi xususida soha vakillarining fikr-mulohazalarini keltirsa-da, lekin masala yuzasidan oʻz qatʼiy fikrini bildirmagan. Ayni vaqtda muallifning lotin alifbosidagi harflarni qoʻllashdagi murakkabliklarga oid taxlillariga qoʻshilmay ilojimiz yoʻq.

Mutaxassislar lotin alifbosidagi toʻrtta xarf ustida bahs yuritib, tilning kommunikatsiya omilida axborot uzatish vazifasiga eʼtibor qaratadilar. Shu bois tilshunoslarning “Alifboni oʻzgartirish natijasida bilimlarni uzatish tezligi oʻzgarishi mumkin. Axborot kontentini yozadigan, yaratadigan odamlarga, xuddi shu kontentning oʻquvchi va isteʼmolchilari singari, yangi alifboni oʻrganish uchun vaqt zarur. Bunday sharoitda aholining savodxonlik darajasi pasaymaydi, deb oʻylash – bu kaltabinlik», degan fikriga hamfikrmiz [1].

Oʻzbekistonda lotin alifbosiga oʻtish milliy mustaqillikka erishishda sobiq Ittifoq mafkurasidan ozod boʻlish, Turk modelidagi davlatchilikning taraqqiyot strategiyasi belgilanishi bilan bogʻliqdir. Bu hol sobiq mintaqadagi ittifoqdosh davlatlarda amalga oshirilishi (Qirgʻiziston bundan mustasno) bilan lotin alifbosiga oʻtish kirillchadan voz kechish hisobiga amalga oshirilgan. Natijada, mustaqillikning maqsadi millatning ijtimoiy taraqqiyoti orqali har bir shaxsning maʼnaviy-axloqiy, intellektual oʻsishida taʼlim va tarbiyaga jiddiy zarar etdi.

Taʼlim va tarbiya deganda, biz, eng avvalo, ajdodlarning avlodlar bilan birga dialektik aloqadorligi, bobo va buvilarning oila va turmush tajribasi, ota-onalarning farzandlarga mehr-muhabbati, ilm-fan bilan shugʻullanishiga imkon yaratishi, oilaviy shon-sharaf, or-nomusni saqlash, maktabga borish muqaddasligi, “ustozning urgani – un oshi, soʻkkani – soʻk oshi” maʼnolarida ota-onalarning bolasiga munosabati tushunilgan. Yangi alifboga oʻtish boshlangʻich sinf oʻquvchilarining uy vazifalarini bajarishda ota-ona, bobo va buvilarning taʼlim yordami, koʻshimcha “darslar”dan mahrum qildi. Boshlangʻich sinf oʻquv mashgʻulotlarini surunkali oʻzlashtira olmaslik bolada ilmiy intellektual oʻsishga salbiy taʼsir etmay qolmadi.

Namangan shahrining boshlangʻich sinf oʻquvchilari orasida oʻtkazilgan soʻrovlar bilan fikrimizni dalillaymiz: soʻrovda ishtirok etgan 56 nafardan ortiq aʼlochi oʻquvchilarning buvilari lotin alifbosida uy vazifalarini bajarishda faol yordam bergani aniqlandi. Kuzatishlar 159 nafar qobiliyatli oʻquvchilarning uy vazifa va koʻshimcha mashgʻulotlarga nisbatan ehtiyoji qondirilganda fanlarni oʻzlashtirishda yuqori natijalarga erishganini pedagoglar tasdiqladi. Masalaning yana bir psixologik jihati – bu toifadagi oʻquvchilarda ruhiy pessimizm va agressiv kayfiyat ham kuchaygan. Pedagoglar boshlangʻich sinfda oʻquvchilar kirillchani tez oʻrganishi, lotinchada katta “I” va kichik “i” xarflarini oʻrganishda qiynalishini aytishgan.

Oʻzbekiston koʻp millatli davlat boʻlib, axolining asosiy qismi oʻzbek boʻlsa-da, lekin oʻzga 129 nafarga yaqin hamyurtlarimiz rus tilli maktablarda taʼlim oladi. Shu bilan birga, oʻzbek oilalari ham farzandlarini rus maktablari taʼlimiga berishi kirill alifbosining milliy zaruriyatini tasdiqlaydi. Biz «Milliy tiklanish» partiyasi rahbari Alisher Qodirovning “rus tilli maktab va telekanallar «nomutanosib darajada koʻp»ligidan noroziligi fikriga qoʻshilib boʻlmaydi [11].

Oʻzbek xalqining milliy birligi millatlararo birlikka ham ijobiy taʼsir etib, 38 millionli mamlakat aholisi yozuvini lotinchaga oʻtkazilishi milliy-ijtimoiy birlikka zarar keltiradi. Chunki, rus tilli maktablarda kirillcha alifbodan foydalanish yurtimizda kirill alifbosida OAVning nashrini talab etaveradi. Qolaversa, yoshlarning halqaro til sifatida rus tilini puxta bilishi intellektual oʻsishga ijobiy taʼsir etadi, deb hisoblaymiz. Zero, rus tilini mukammal bilish dunyoning barcha davlatlarida muloqot qilishga, MDH davlatlari bilan ilmiy-madaniy hamkorlikda foydalidir.

Adiblarimizning lotin alifbosiga oʻtish hissiyotlariga berilgan holda jadid allomalarimizning gʻoyalari bilan asoslashga intilishi oʻta bahslidir. Chunki, zamonaviy

tsivilizatsiya har yili emas, har kuni o'zgarib, sun'iy aql davriga qadam qo'yish bilan yangi ilmiy-intellektual asrning "global qishlog'ida" yashayapmiz. Bu bilimlar qishlog'ida lotin alifbosidan ko'ra kirillchada yashash millat uchun istiqbolli yo'lak ochadi. Katta avlod, ya'ni kirillcha ta'lim-tarbiya ko'rganlar umrini yashab bo'lishi, yosh avlod lotinchada baxt-saodatga erishuvi haqidagi qarashlar o'ta oqilona fikr bo'lolmaydi.


Zamonaviy axborotlashgan makonda til va yozuvning shakllanishi ijtimoiy muhitning yangilanishi, og'zaki nutqning o'zgarishi ta'sirida yozma nutqda ham tafakkur transformatsiyasi yuz berib, mantiqiy buzilishlar hosil bo'ladi. Fikrimizni yoshlar orasida "o'xshadi", "o'xshamadi" kabi yangi muomala iboralari bilan dalillash mumkin. O'zbek tili yozma nutqida otaning so'rog'iga o'g'il buyurilgan ishni bajara olmaganini "o'xshamadi" deya javob beradi. Ko'p millatli davlatda milliy tilning ovozli yoki yozma grafikasida axborotni etkazishda adekvat til talablari saqlanib qolishi shart. Millat o'zining tarixiy turmushi jarayonida har bir hodisa va predmetni ifodalash uchun ovoz, tovushning muayyan shaklini ongu tafakkurida muhrlagan ijodiy xalqning donishmandligidir. Ajdodlar avlodlarga hushmuomalalik bilan birga chiroyli xusnixat tarbiyasini ilohiy burch sifatida hadya etgan. Biz fikrimizni Yapon ieroglif yozuvlarining qadimiyligi, uni o'zgartirish haqidagi baxslar yapon madaniy taraqqiyotining tanazzuli tufayli olimlarning qarshiligiga uchragani bilan dalillaymiz [2; 415–421]. Shu bilan birga lotin alifbosidagi yozuvlarning tovush ritmi "mayinligi", kirillchada esa "portlovchi" tovush signallari bilan odamning yuzida antropologik qiyofaga ham ta'sir etgan.

Millatning tarixiy xotirasi so'z boyliklarini ajdodlarga qoldirishda yozma manbalarni nodir yodgorlik sifatida saqlagan. Turli xalqlarda yozuvning bo'lishi madaniy ko'rsatkich, xatto ba'zi xalqlar yozma manbalarining sirlari haligacha ochilmagan. Ayni vaqtda yozuvning milliy-madaniy afsonaviy taqdiri ko'p hollarda diniy nuqtai nazardan amalga oshirilgan. Biz fikrimizni MDH tilshunos olimlari ilmiy tadqiqotlarining natijalari bilan izohlaymiz [3; 93–102]. Islom dinida hattotlik o'ta nozik kasb bo'lib, alohida taqvodorlarning professional ishi bo'lgan. Shu bois biz har bir xalqning yozuvi jahon axborot tsivilizatsiyasining milliy-ommaviy kommunikatsiyalashuvi bilan madaniyatlarining o'zaro ta'siri, taraqqiyot davrlarining ommalashuvi, degan fikrga moyilmiz. Z.Yu.Xuakoning yozuv madaniyati ilk davri "eshitish" bo'lsa, ikkinchi bosqichda "ko'rish", ya'ni alifbogacha bo'lgan davrdan keyin yozuvning turli-tuman grafik shakllari davri, so'ngra alifboning bosma harflari kashf etilgan. Natijada, odam eshitish, ko'rish bilan ijodiy fikrlash imkoniga ega bo'lganligi haqidagi muallifning qarashlarini qo'llab quvvatlaymiz [9; 240]. Bir davlatda millatning ikki xil alifboda qolishini, bolgarlarning kirillchasi bilan o'z milliy taraqqiyotini belgilashini siyosiylashtirish oqilona ish bo'lolmaydi.

Yurtimizda yoshlarning lotin alifbosiga o'tilishi tufayli til va yozuvdagi savodsizligi bilan birga o'zbek tili va yozuvi deformatsiyalashmoqda. Chunki, til va yozuvning milliy va xorijiy madaniy aloqalar kommunikatsiyasi, ob'ektiv voqelikni anglash va o'z pozitsiyasini hosil qilish, odamlarning o'zaro muomalasida chuqur ma'nolarga ega atama va so'z birikmalarini o'zlashtirish, axborot tarqatish va qabul qilish, uni qayta ishlash bilan barqaror aloqa madaniyati asosida o'z hissiy-emotsional kayfiyat, ijtimoiy maqsadlarni belgilash, o'zgalarga og'zaki va yozma nutqda fikrni lo'nda etkazish, milliy-madaniy boyliklardan unumli foydalanish orqali badiiy ijod namunalari yaratish, millatning milliy-diniy madaniyatini o'zlashtirishda til tafakkurida o'zlikni qaror toptirishi, yoshlarning o'zbek milliy-madaniy qiyofasini barpo etadi. Shu ma'noda til va yozuvning milliy-madaniy muhofazasi ziyolilarning sharaflil burchi, uni avlodlarga targ'ib etishdan davlat hamisha manfaatdor bo'lgan. Biz rus tili va yozuvining Rossiya xalqlari madaniyatining ajralmas qismi davlatchilikning taqdirini belgilashi bilan nufuzli ilmiy anjumanlar tashkil etish bilan bog'liq muammoning zaruriyatini izohlaymiz [10; 272].

Aksincha, millatning boshi berk ko'chaga kirib qolganini anglab to'g'ri yo'l topa olishi uning kuchli madaniy irodasining axloqiy ko'rsatkichidir. Chunki, katta avlodning ongida lotinchaga o'tish "psixologik gen transplantatsiyasi" jarayoni yuz bermoqda. Biz kompyuter klaviaturasida alifboni tez-tez o'zgartirishga harakatlar tufayli foydalanuvchining ruxiy

xastalanishini aniqladik. Shu ma'noda ijtimoiy ongda alifboni milliy ong tafakkuri tizimiga mosligi yoshlarning ta'lim va tarbiyasi natijadorligini ta'minlaydi. Lotin va kirill alifbolarini ChatGPT orqali inson uchun qulayligini solishtirganda natija sifatida quyidagi holatni berdi (1-rasm).



1-rasm. Lotin va kirill alifbosining inson uchun qulaylik solishtirmasi [9].

Millatning milliy yozuvi genetik xarakterga egaligi milliy-madaniy, diniy o'zlikni saqlab qolish, global axborot makonida ijtimoiy-madaniy kommunikatsiyada kirillchaning maqsadga muvofiqligidir. Millatning milliy til va yozuvi fanlararo tadqiqot predmeti bo'lib, biz lingvistik qonun-qoidalaridan ko'ra muammoning ijtimoiy falsafasi tadqiqiga e'tibor qaratdik. Zamonaviy tilshunoslikda O'zbekiston jadid falsafasini ijodiy o'rgangan holda "global qishloqda" madaniy-ma'rifiy hamkorlik uchun kirillchani yozma madaniyat ma'nosida qoldirishi foydalidir. Bir avlodni lotinchada voyaga etishi sharoitida millatning kirillga qaytishi zamonaviy ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda milliy manfaatning himoyasidir. Kirill alifbosi millatning yozuv madaniyati bo'lib shakllangan ekan, lotinchaga o'tish asriy qoloqlik va izolyatsionizm bilan yoshlar savodxonligiga, hatto katta avlod bilan yosh avlodning ijtimoiy qon-qarindoshlik rishtalariga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Bu alifboga qaytish ruslarga tobelik, milliy mustaqillikka zararli, deyish o'ta bahsli masaladir.

O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy irodasi kuchli millat bo'lib, o'z kamchiliklarini bartaraf etib, bir avlodni lotinchada ma'lumotli qilgan bo'lsa, ijtimoiy muhitda kirillchaga qaytish bilan kelajak avlodning milliy intellektual kamolga erishuvini ta'minlay oladi. Olimlar odamning og'zaki va yozma nutqi nasldan-naslga o'tishi, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga *yozma nutq* ta'sirining nasliy jihatini aniqladilar. Aslida, o'zbek xalqida hattotlik san'ati bilan shug'ullanadigan alohida qavmlar, oilalar bo'lgani, omma tomonidan ulug'langani haqida ma'lumotlar mavjud.

Yozuvlarning paydo bo'lishi bilan odamlarning ajdodlar bilan "online" kommunikatsiyasi orqali kelajak uchun o'ta muhim hayotiy tajribani o'zlashtirish imkoni tug'ilgan. Yozuv shaxsning ma'naviy-ruhiy, milliy odat va an'analari ob'ektiv olamni anglash orqali o'zini ham bilishga imkon yaratadi [12; 385–395]. Antik davrdan boshlab yunonlar har bir fuqaroning xat-savodi, har bir ettilikda (bolaning yoshi) ta'limning bosqichlaridan o'tishi ijtimoiy burch sifatida qo'yilgan. Xat-savodga o'rgatish – ustozlik o'ta murakkab ish bo'lganidan qullarning kasbi edi. (O'qituvchi bo'ldi: u o'ldimi? Afinaliklar maqoli). Aholining xat-savodi, yozma nutqi millatning jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishi, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda aholining siyosiy-madaniy faolligini ta'minlaydi.

Alloh odamga og'zaki yoki yozma nutqni ato etgan, bir vaqtda ikkovining berilishi shaxsning badiiy-madaniy noyob qobiliyatidir. O'zbek adabiyoti va san'atida shunday ovoz sohiblari borki, ularning ovozi badiiy nafasat, xalqning takrorlanmas merosiga aylangan. Abror Hidoyatovning "Otello" obrazini ingliz tomoshabini tik turib olqishlagan, Chingiz Aytmatovning asarlaridagi so'zlar shu qadar oddiy iboralardan marjondek tizilganki, dunyoning 165 ta tilida o'quvchini hayratga solmoqda. Muhammad Yusufning poeziyasi zamonaviy shoirlarning shoiri, adiblarning adibi, millatning qasidasiga aylanib ketgan, yoshlar uchun millatning madhiyasi, deb hisoblaymiz.

Zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida yozma nutqning elektronlashuvi, ya'ni o'zaro xat va yozishmalar bosma harflardagi amaliyoti kirillchada juda qulaydir. Yoshlarning savodxonligida kirill yozuvi belgilari millatning shon-sharafi, or nomusi, badiiy tafakkurini namoyon eta oladi. Chunki, gap har bir millatning tili va yozuvi ma'naviy barkamollikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, kitobxonlik mutolaasiga ko'nikmalari haqida bormoqda. O'zbekistonda yoshlarning milliy til va yozuvining ijtimoiy madaniyat darajasida e'tirof etilishi taraqqiyotni ta'minlashning milliy negizidir.

Raqamli jamiyatda qo'lyozma elektron shaklda bo'lib, yoshlarning kirillchaga moyilligi aniqlandi. Xususan, yoshlarning O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning lotinchadan ko'ra kirillcha asarlarining elektron shakliga murojaatining faolligi bilan fikrimizni dalillaymiz. Yoshlar lotincha matnni o'qishda mazmunni yodda saqlashi, kirillchaga nisbatan ham pasayib borishi laboratoriya tahlillarida aniqlandi. O'zbekistondagi AKT qurilmalarida ijodiy ishlarni lotin alifbosida bajarishda alifbodagi muammo tufayli noqulaylik kasb etishi bahs talab etmaydigan faktidir. Biz yoshlarning yozma nutqini shakllantirish orqali nafaqat sport, balki ilm-fan sohalarida ham dunyoni zabt etadi, degan fikrni yoqlaymiz.

IX asrda bolgariyalik Kirill va Mefodiy kirillcha yozuvni xristian xalqlariga tenglik va ezgulik maqsadlarida tarqatgan. U har bir xalqning o'z madaniyatini rivojlantirishga imkon yaratilishida slavyan xalqlarining madaniy taraqqiyotini ko'zlagan. Sobiq Ittifoqda kirillcha alifboning ommalashuvi ham yangi ijtimoiy madaniy birlik, xalqlarning rivojini ta'minlagan. Shu ma'noda Angliya dunyo xalqlariga o'z tili va yozuvini bersada, lekin 340 mln.li AQSh dunyo tsivilizatsiyasida etakchi, Evropaning barcha davlatlarida ingliz tili va yozuvi qo'llanilishi ideologik salbiy oqibatlarga olib kelmadi. Shu bois kirillcha yozuvda O'zbekiston axolisi dunyo madaniyatini MDH davlatlari bilan hamkorlikda o'zlashtirib, o'z milliy va diniy qadriyatlarini tiklashi mumkin.

Xulosa. Milliy til va yozuv yoshlarning ob'ektiv borliqda yashashi uchun ajdodlarning boy milliy madaniy yutuqlarini vorisiylik asosida qabul qilishi bilan birga ilm-fan, texnika yutuqlarini har tomonlama chuqur o'zlashtirishi orqali taraqqiyot maqsadlarini amalga oshirishi mumkin. Shaxsning og'zaki va yozma nutqi o'zga organizmi kabi tinimsiz mehnat, mashq va o'qishni o'zlashtirish bilan barkamollikka erishuvi tabiiy holdir [6]. Shu bilan birga fuqaroning ijod qilish erki til va yozuvda ilmiy tadqiqotlarning taraqqiyotiga ta'sir etmay qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Азимов Ж. Оғрикли ҳарфлар. 30 йилга чўзилган ўзбек алифбоси ислоҳоти//<https://sp.gazeta.uz/page4>. (Мурожаат санъаси 06.08.2025).
2. Гончарова А. А. Ценность японской письменности как особенности национального мышления //Sci-Article.ru, 2013. – №4. – С.415-421.
3. Жаде З. А., Хуако З. Ю. Этнос и слово: исторические и социокультурные аспекты графики письма //Гуманитарий Юга России, 2016. – Т. 19. – № 3. – С. 93-102. <https://www.isras.ru>
4. Жохова Л.А., Голубева А.В. Развитие языка как признак модернизации общества//Известия МГТУ. –2013. № 4(18.2). –С. 252-261
5. Лотин ва Кириллинг кулайлик солиштирмаси// <https://chatgpt.com>

6. Мирзахмедов А., Мирзахмедов Х. Правовые парадигмы государственного языка //Eurasian journal Sotsial science, 2024. – № 1. – Р. 34- 46
7. Религия и письменность как факторы формирования славянской культуры. Сб. статьи. – Минск: Позитив-центр, 2018. – 272 с.
8. Худайбергенова У. Реформа алфавита в Узбекистане //Многоязычие в образовательном пространстве, 2025. – № 3 –С.40-47.
9. Хуако З. Ю. От письменности – к книжной культуре: Краткий очерк развития книгоиздания Адыгеи в 1918-2013 гг. – Майкоп, 2013. – 240 с.
10. Язык и культура как национальное достояние в поликультурной среде: Мат-лы конф. /под ред. А.Г. Етко. – Ставрополь: СКФУ, 2019 – 409 с.
11. Қодиров А. Рус тилли мактаблар ва телеканаллар ному таносиблиги //https://xabar.uz/mahalliy/rus-maktablari (Мурожаат санъаси 06.07.2025).
12. Mirzahmedov A., Mirzahmedov X. The Role of Teacher In The Education The // Ameriran jornal Sotsial sciense. –2021.-№ 1. – Р. 385-395.
13. Фарид З. Эркин таълим ҳимоясида. –Тошкент.: “Trust and Support”. 2025. –175 б.